

XXI ASR O'ZBEK ADABIYOTIDA TARJIMA ASARLAR TIL  
XUSUSIYATLARI*Aliyorova Barno Toshtemirovna**Termiz davlat universiteti lingvistika bo'limi magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada 21-asrgacha o'zbek adabiyotida olib borilgan ishlar va undan keyingi o'zgarishlar, tarjima qilingan asarlar haqida, jahon va o'zbek olimlarining tarjima qilingan asarlari haqida, chet el davlatlaridan tarjima qilingan asarlar va ularning tanqidiy muammolari haqida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** adabiyot, tarjima, olimlar, sharqshunoslik, asarlar, jahon adabiyoti.

**Annotation:** This article reveals the work carried out in Uzbek literature up to the 21st century and subsequent changes, translated works, translated works of world and Uzbek scholars, translated works from foreign countries and their critical problems.

**Key words:** literature, translation, scientists, oriental studies, works, world literature.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается работа, проводившаяся в узбекской литературе вплоть до XXI века и последующих изменений, переводные произведения, переводные произведения мировых и узбекских ученых, переводные произведения из зарубежных стран и их критические проблемы.

**Ключевые слова:** литература, перевод, учёные, востоковедение, произведения, мировая литература.

Mustaqillik davridan beri o'zbek adabiyotida barcha tur va janrlar qatori badiiy tarjima amaliyotida ham o'sish-o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanib kelmoqda. Ayniqsa, xorij tilaridan tarjima izga tushayotgani quvonarli holatdir. Bu borada yoshlarning o'z iqtidorini sinovdan o'tkazayotgani, Sharq va G'arb xalqlari adabiyoti namunalarini bevosita ona tilimizga o'girishga dadil kirishayotgani katta umid uyg'otadi.

Ayni vaqtlarda o‘zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish ham yoshlarga yaxshigina tashabbus ko‘rsatmoqda. Bu sohadagi ishlarning izchil tus olganini O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Badiiy tarjima va xalqaro aloqalar bo‘limining respublikamizdagi yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida poytaxt va viloyatlardagi oliy o‘quv yurtlari bilan hamkorlikda “Yosh tarjimonlar maktabi”ni tashkil etgani, yosh tarjimonlarning ilk tarjima asarlari “Adib” nashriyotida chop etilayotgani, “Jahon adabiyoti” jurnalining muntazam chiqib turgani va amalga oshirilgan boshqa ko‘plab tadbirlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Zero, o‘zbek adabiyoti namunalarini chet tillariga, jahon adabiyoti sara asarlarini ona tilimizga munosib tarzda tarjima qilib taqdim etishdek sharaflı vazifa bugungi navqiron avlodning iqtidori, g‘ayrat-shijoatiga bog‘liqligi sir emas albatta.

XX asrga qadar “tarjima” so‘zi faqat tarixiy, falsafiy, adabiy va badiiy asarlar o‘girmasiga nisbatan qo‘llanib kelingan edi. Og‘zaki tarjimonga nisbatan esa turkiy xalqlarda “tilmoch”, nemis tilida “dolmetechen”, ingliz va fransuz tillarida “interpret” atamaları qo‘llanilgan va hozirgacha ba’zi joylarida qo‘llanib kelinadi. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo‘sında umumiy ma’no kasb etib kelgan.

Tarjima nazariyasiga bag‘ishlangan ilk tadqiqotlar o‘tgan asrning 20-30 yillarida yuzaga kela boshladi. Bu davrda nashr qilingan Amos, Postget, Finkel, Alekseev kitoblarida va Sanjar Siddiqning “Adabiyot tarjimasi san’ati” (1936) risolasida tarjima nazariyasi fan sifatida e’tirof etilgan asarlarni uchratib kelganmiz. 50-yillarda taniqli tarjimon Ivan Kashkin va tilshunos Reformatskiyning tarjima nazariyasi xususidagi maqolalari e’lon qilingandan so‘ng bu sohada bahs-munozaralar keskin darajada boshlanib ketdi. Professor Reformatskiy “tarjima amaliyoti barcha fanlar uchun xizmat qilsa-da, tarjima nazariyasi mustaqil fan bo‘la olmaydi, balki tilshunoslikning bir bo‘limigina bo‘lishi mumkin”, degan g‘oyani ilgari surgan edi. Keyinchalik bu g‘oyalar juda kengayib ketdi. Ammo o‘z tasdig‘ini topmadi. Chunki tarjima nazariyasi alohida fan bo‘lib rivojlana boshladi.

Jahon olimlarining tarjima nazariyasi va tarjima tanqidi muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlari birin-ketin chop etila boshlandi. Bu esa olimlarning ilmiy

izlanishlari ravnaqini belgilab berdi. O'tgan asrning 70-yillariga kelib jahon filologiya ilmidagi tarjimashunoslik deb nom olgan mustaqil fan shakllandi.

O'zbekistonda tarjimashunoslik ilmining rivojida Jumaniyoz Sharipov, Ninel Vladimirova, G'aybulla Salomov, Najmiddin Komilov, Quadrat Musaev kabi olimlarning xizmati katta bo'ldi. Bugungi kunga kelib o'zbek tarjima maktabi jahon tarjimashunoslik ilmidagi tan olindi va katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng o'tgan yigirma uch yil davomida badiiy ijodning barcha sohalarida bo'lgani kabi tarjima nazariyasi va amaliyotida ham o'zgarish va yangilanishlar ro'y berdi. -Prezidentimiz tashabbusi bilan tarjima va tarjimashunoslar minbari "Jahon adabiyoti" jurnali tashkil etilib, o'z faoliyatini boshladi. Atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov boshchiligida ushbu jurnalda dunyo adabiyotining eng sara asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib bosilib chiqdi. Eng muhimi, jurnal tahririyati aslyatdan tarjima amaliyotiga keng yo'l ochib berdi. Chunonchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining tarjima fakultetida, O'zbekiston milliy universitetining xorijiy filologiya fakulteti tarjima bo'limi magistraturasida hamda Samarqand chet tillar institutida tarjimon kadrlarni tayyorlashga katta ahamiyat berilmoqda. Tarjimonlar tayyorlashning ilmiy-nazariy tomoni bevosita sohaga oid darslik, o'quv qo'llanmalari va turli lug'atlarni taqozo etadi. Afsuski, hali zamon ruhiga mos, bugungi kun talabiga javob beradigan tarjima nazariyasiga doir darslik hozirgacha yo'q. Hozircha foydalanib kelinayotgan o'quv qo'llanmalarda tarjimashunoslikning barcha jihatlari qamrab olinmagan. Tarjima nazariyasiga doir o'quv adabiyotlarini yaratishda faollik ko'rsatayotgan olimlarimizning xizmatini e'tirof etgan holda, ta'kidlash joizki, ayni paytda tarjima tanqidiga ilmiy asos bo'ladigan, uning rivojiga turtki bo'ladigan tadqiqotlar juda kam. Bu esa bevosita tarjima tanqidida sustkashlikni keltirib chiqarayotgan sabablardan biri. Vaholanki, tarjima sohasi gurkirib rivojlanayotgan bugungi kunda tarjima tanqidi har jihatdan faol, hozirjavob, adabiy jarayonning eng qizg'in jabhalaridan biriga aylanishi lozim.

Bundan tashqari gazeta-jurnallarda, nashriyotlarda bosilayotgan tarjima asarlar, kitoblarda ushbu asar xorijlik yozuvchi yoki shoirning qayerda, qachon, qaysi tilda nashr qilingan kitobi asosida amalga oshirilgani haqida hech qanday ma'lumot berilmaydi. Nashr madaniyatining bu oddiy talabiga rioya etmaslikni aslo oqlab bo'lmaydi. Negaki, xorijlik adib asarining bir necha bor turli saviyada bosilgan, to'ldirilgan, qisqartirilgan, qayta ishlangan nashrlari bo'lishi mumkin.

Albatta, Abduzohir domla -aytganlaridek, bevosita badiiy tarjima amaliyotini takomillashtirish uchun, avvalo, shu sohaga oid darslik va qo'llanmalarni yangilash lozim. Buning uchun, ehtimol, mazkur sohaga oid qo'llanmalarni nashr etishdan avval o'qib tavsiya bera oladigan tarjimashunos olimlarning metodik kengashini tashkil etish kerak bo'lar. Sababi, mashaqqatli mehnat va mablag' evaziga chop etilgan qo'llanmani nashr etilgandan so'ng tanqid qilgandan ko'ra, nashrgacha taqrizga berib, xato va kamchiliklari ko'rsatilsa, ta'lim tizimi rivoji uchun maqsadga muvofiq ish bo'lardi.

A.Abduazizov: — Zamon talabi darajasidagi tarjimonlarni tayyorlash uchun nafaqat tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha mukammal darslik, shuningdek, badiiy, ilmiy-texnik, idora ish uslubiga mos o'quv qo'llanmalari, ikki, uch va ko'p tilli lug'atlar yaratish talab etiladi. Hozircha chop etilgan inglizcha-o'zbekcha, nemischa-o'zbekcha, frantsuzcha-o'zbekcha lug'atlarning foydali jihatlarini kamsitmagan holda aytish joizki, bu lug'atlar hali tarjimonlarning talabini qoniqtirmaydi. Endilikda katta izohli sinonimik va qomusiy lug'atlar kerak, hatto tarjima nazariyasi amaliyotiga doir izohli lug'at tayyorlashni ham o'ylash zarur. Negaki, tarjima nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq ko'pgina masalalar yetarlicha aniq hal etilgan emas. Xususan, tarjimada so'zlarning tartibini o'zgartirish yoki o'rnini almashtirish, so'z qo'shish yoki tushirib qoldirish nima uchun va qay holatda ro'y berishi va ularning barchasini umumiy nom bilan tarjimada transformatsiya (leksik, grammatik va stilistik) deb atalishi yaxshi o'rganilmagan.

Taniqli olimlar Jon Ketfordning yoki Yudjin Naydaning tarjima nazariyasiga bag'ishlangan kitoblari hanuz o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bunday asarlarni talabalarga seminar -mashg'ulotlarida tahlil qilishni o'rgatish zarur.

Hozir tarjimonlar ko‘paygani quvonarli hol, biroq amalga oshirilayotgan tarjimalar sifati haqida o‘ylashimiz zarur. Faqat Toshkentda emas, balki viloyatlarda ham tarjima kitoblar bosilayotir. Biroq bu tarjimalarni kimlar o‘qib tahrir qilmoqda, kimlar tarjima talabga javob berishiga kafolat bo‘lmoqda? Bu tarjimalar faqat rus tilidagina emas, balki boshqa xorijiy tillardan o‘girilgan. Rus tilidan o‘zbek tiliga qoyilmaqom tarjima qila biladigan usta tarjimonlar bor. Ba‘zan ular ham -ing-liz tilidan qilingan tarjimalarga, hatto dissertatsiyalarga taqriz berishadiki, endilikda bunday ishdan tiyilish lozim. Tarjima qilingan asar tilini bilmagan kishi u haqida nima -deyishi mumkin?! Har holda bir tildan ag‘darilgan asarni shu tilni bilgan mutaxassis ko‘rib chiqsa foydalidir. Biror mutaxassis, tarjimon ko‘rib taqriz-bermagan tarjima asarni nashr etishga shoshilmaslik lozim.

Gulchehra Rixsiyeva: —Yurtboshimizning “Adabiyotga e‘tibor — ma‘naviyatga, kelajakka e‘tibor” asarida aytilgan “...boshqa sohalar qatori adabiyot sohasida ham xalqaro aloqalarni kuchaytirish zarur.

Qaysi mamlakatda bizning adabiyotimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashadi, xorijdan biz nimalarni o‘rganishimiz mumkin, o‘z navbatida, ularga nimalarni taqdim etishimiz mumkin — bu masalalar xalqaro maydonda o‘zligimizni namoyon etishda katta ahamiyatga ega ekanini doimo yodda tutishimiz lozim.

Ushbu ishlar borasida Toshkent davlat sharqshunoslik institutida bir qator ishlar amalga oshirilmoqdaki, ularni uch yo‘nalishga ajratish mumkin: birinchisi, sharq mamlakatlari adabiyotini chuqur o‘rganish va o‘zbek tiliga tarjima qilish; ikkinchisi, o‘zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy sharq tillariga tarjima qilish orqali milliy madaniyatimizni jahonga targ‘ib qilish; uchinchisi, sharqshunos tarjimonlarni tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini mustahkamlash, tarjimashunoslikning nazariy masalalarini tadqiq qilish. Bu ishlarni boshqarishda institutda 2011 yilda ochilgan va joriy yilda magistratura va bakalavriat yo‘nalishlarini bitirayotgan ilk qaldirg‘ochlar — o‘ttiz nafarga yaqin yapon, xitoy, hind va arab tillaridan tarjima qiluvchi yosh

mutaxassislar tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasining faoliyat ko'rsatayotgani katta umid uyg'otadi.

Tarjimondan nafaqat til bilimdoni, balki adabiyotshunos va elshunos bo'lish ham talab etiladi. Chunki muayyan xalqning madaniyati, assotsiativ tafakkurini chuqur bilmay, til boyligini yaxshi egallamay turib tarjimon badiiy til vositalarini to'g'ri tanlay olmaydi, tilning poetik jihatlarini his etmay, oqibatda tarjima to'g'ri va ta'sirchan chiqmaydi. Shu ma'noda yosh tarjimonlarga sohaning yetuk mutaxassislari, tajribali sharqshunos-tarjimonlar yordamida mahorat darslari tashkil etib, tarjimada milliy koloritning berilishi, so'z tanlash mahorati, davr ruhining til birliklari vositasida to'g'ri aks ettirilishi, nihoyat, asar muallifining g'oya-maqsadini aniq yetkazib berishga o'rgatish zarur deb o'ylayman.

Shu bilan birgalikda tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning qiziqarli mavzular ustida izlanayotganini ham hozirgi kunda juds katta muvaffaqiyat hisoblanadi. Yapon, koreys, xitoy, hind tillaridan tarjima jarayonida uchraydigan til va badiiy tafakkur bilan bog'liq holatlar tarjimasiga aloqador masalalarni tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar kelgusida bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar ko'lamining yanada kengayishiga ta'sir etadi. Bunday yoshlarga alohida e'tibor berish, ularni qo'llab quvvatlash kerak. Zero 21-asr Yosh avlodlarni rivojlantirish va ularni qo'llab quvvatlash asridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1: Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent 2008
- 2: info@nationalprcentre.com
- 3: @ziyo.uz.sayti.
- 4: Islom Karimov Adabiyotga e'tibor ma'naviyatga e'tibor